

ALLA MATNLARIDA MILLIY MADANIYATNING AKS ETISHI

Mamarasulova Maftuna Rustam qizi

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU ona tili va adabiyoti ta’limi kafedrası
stajor-o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada alla matnlarida milliy madaniyatni aks ettiruvchi vositalar va ularning o‘ziga xosligi, lingvomadaniyatshunoslikda xalq og‘zaki ijodi namunalarining tahlil etilishiga doir tahlillar o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyatshunoslik, milliy ruh, komsept.

Alla matnlarini lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish orqali o‘zbekona qadriyatlar yig‘indisi, madaniy an‘analar tizimi, milliy idrok intizomining allalarda qay yo‘sinda, qanday til birliklarida aks ettirishi oydinlashadi. Allada asosan oila va oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq qadriyatlar, ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning boshqa xalq, boshqa millatlardan farqli jihatlari eks etadi. Umuman, alla vositasida go‘dakda milliy ong, milliy ruh shakllanadi. Zero, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy –ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdula Avloniyning so‘zlari bilan aytganda, “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Millat tilini yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qomakdur”¹ Xalq tarixi milliy qadriyatlar, madaniyat tarixi bilan uzviy bog‘liq hodisa hisoblanadi. O‘ziga xos tarixiy taraqqiyoti, madaniy rivoji hamda etnografik xususiyatlariga ega bo‘lgan har bir xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, madaniyati va etnik qatlamiga doir ma’lumotlar xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, xalq qo‘shiqlarida – allalarda o‘z ifodasini topgan. Alla folklor namunalari orasida eng qadimiy janrlardan biri bo‘lib, hozirga

¹ Каримов И.А Юксак маънавият –снгилмас куч. –Тошкент.: Маънавият. 2008. – Б.65

qadar yashab kelayotgan, insoniyat tarixi bilan hozirgi davrni bog‘lab turuvchi ko‘prik sanaladi. Shu bois milliy qadriyatlarga doir muhim ma‘lumotlari, ya‘ni xalq dunyoqarashi, urf-odati, an‘analarini, turmush tarziga doir ma‘lumotlarni o‘zida mujassam etadi. Lingvokulturologiyaning tadqiq manbai madaniyat elementlarini o‘zida aks ettirgan birliklardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos urf-odat, an‘ana, qadriyat, dunyoqarash hamda milliy-madaniy qonuniyatlarni turli darajada ifoda etadi. Alla madaniy birlik sifatida til va madaniyat munosabatini, madaniy qarashlarni ifodalashga xizmat qiladi. Shu o‘rinda til va madaniyat tutashuvi asosida tilshunoslik negizida paydo bo‘lgan lingvomadaniyatshunoslik sohasining ahamiyati, xususiyati xususida to‘xtalib o‘tish zarur. Lingvomadaniyatshunoslik sohasi tilga antroposentrik nuqtai nazardan qarash natijasida vujudga kelgan tilshunoslik sohalaridan biri sanaladi. Garchi lingvokulturologiya sohasiga XX arda asos solingan bo‘lsa-da, uning ildizlari nemis olimi V.fon Gumboltning “xalq ruhi” haqidagi g‘oyalariga borib taqaladi. Uning fikricha, turli tillarning o‘ziga xos tomonlari, ular o‘rtasidagi farqlarning asosida yotuvchi eng oliy prinsip bu “xalq ruhi”dir. “Xalq ruhi” tushunchasi ostida Gumbolt xalqning o‘ziga xosligi, intellektual qadriyatlar, milliy madaniyat tushunchalarini nazarda tutib moddiy va ma‘naviy madaniyatning tilda mujassamlanishini, har qanday madaniyat “xalq ruhi”ni aks ettirishini, til va “xalq ruhi”ning o‘zaro bog‘liqligini, hatto ularning tengligini ta‘kidlagan edi.² Shuningdek, uning “millatim tili chegaralari dunyoqarashim chegaralarini ko‘rsatadi”³ degan fikrlari ham lingvokulturologiyaning asosini tashkil etuvchi g‘oyalar sanaladi. Shuningdek, lingvokulturologiyaning shakllanishida Amerikada F.Boas, E.Sepir, B.Uorf kabilarning tadqiqotlari, Rossiyada esa D.K.Zelenin, E.F.Karskoy, A.A.Shaxmatov, A.I.Sobolevskiy va boshqalarning tadqiqotlari ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu bilan birga Alisher Navoiyni ham lingvokulturologiya sohasiga doir tushunchalarning ilk tadqiqotchisi sifatida e‘tirof etish mumkin. Buyuk mutafakkirning borliq, koinot, tabiat va jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, lisoniy vaziyatlar, inson dunyosi, ichki olami, ruhiyati, til va nutq, til va

² Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент, 2012. –Б. 200.

³ Маслова В.А. Лингвокультурология. – С.3.

tafakkur, til va madaniyat munosabatlari borasidagi mulohazalari bugungi kun uchun ham muhimdir. Alisher Navoiy lirikasida, epik va ilmiy asarlarida hozirgi o'zbek tilshunosligida yangi yo'nalishlardan hisoblanuvchi lingvokulturologiyaga doir qarashlar o'z aksini topgan.⁴ Lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o'tgan asrning 90-yillarida shakllandi. Lingvokulturologiya atamasi V.N.Telya yetakchiligidagi frazeologik maktabda Y.S.Stepanov, A.D.Artyunova, V.V.Vorobev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan fanga kiritilgan. An'anaviy tilshunoslikda til va madaniyatning o'zaro ta'siri masalasi ba'zi lingvistik masalalarni yechishda madaniyat haqidagi ayrim tasavvurlar bilan cheklangan bo'lsa, lingvokulturologik yondoshuvda til o'z birliklarida madaniyatni saqlaydigan, atrof va kelajakka uzatiladigan yaxlitlik sifatida, sof milliy mulk hisoblanuvchi har bir ma'noli lisoniy hodisa esa shakl va milliy mazmun mushtarakligida o'rganiladi.⁵ Har bir yangi til sohibi yetishar ekan, u o'z dunyoqarash va bilimini, birlamchi tasavvurlarini mustaqil holda qayta ishlash asosida emas, balki ajdodlarning mif va afsonalarida til birliklariga biriktirilgan til tajribalari asosida shakllantiradi. Ajdodlarning lisoniy tajribalari natijasi o'laroq, bilimlarni osongina egallaydi va rivojlantiradi. Til jamiyati a'zosi ajdodlar lingvomadaniy merosi vositasida borliqni bilish jarayonida tilda qayd etiladigan madaniy mulk sifatidagi yangi ifodalarni ham paydo qiladi. Shu asosda til, lingvomadaniy meros tashuvchisi bo'lish bilan bir birga, hali noma'lum bo'lgan hodisalarni ochish va nomlash vazifasini ham voqelantiradi. Demak, til nafaqat madaniyatda mavjud hodisani ataydi, madaniyatni ifodalaydi va shakllantiradi, balki uning o'zi ham madaniyat bag'rida ulg'ayadi.⁶ Lingvomadaniyatshunoslikda faol qo'llanishga ega birliklardan biri bu konseptdir. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Prof. N. Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi xususida shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan

⁴ Холманова З.Т., Саидахмедова О., Нуруллаева О. Лингвокультурологияга оид тушунчалар тадқиқи. – Т. Наврўз, 2018. – Б. 19.

⁵ Маслова В.А. Лингвокультурология. – С.9.

⁶ Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Кўкон, 2019. Б –40.

konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan"⁷. Demak, konsept lingvokulturologiyada eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Masalan, *uy* konsepti o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

- a) yashash joyi – bino – ko'p qavatli uy – hovli – xonadon – oila;
- b) katta, kichik, chiroyli, shinam, yorug', yangi, eski;
- v) mehribonlik uyi, dam olish uyi, madaniyat uyi.

Ko'chma ma'noli birliklarni yuzaga chiqaradi: *uy ichi* "oila a'zolari", *uyi buzilmoq* "er-xotinning ajralishi", *uyi kuymoq* "xonavayron bo'lmoq". Alla matnlarida asosan ona va farzand o'rtasidagi munosabatning ustuvorlik kasb etishini ko'rish mumkin. Shu asosda aytilish mumkinki, alladagi barcha madaniy qarashlar, milliy qadriyatlar bevosita ona va farzand konsepti atrofida voqelanadi. Alla bevosita onaning kechinmalari, his-tuyg'ulari, mehru muhabbati ifodasi sifatida yuzaga keladi. Shu bois onaning tilidan aytiladigan alla qo'shig'i uning xarakter-xususiyati, dunyoqarshi ifodachisi hamdir. Shundan kelib chiqqan holda alla ona shaxsining konseptual xususiyatlarini to'la-to'kis ifoda etuvchi vosita deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashid Abdurahmonov. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi. – Samarqand, 2006. – 356 b.
2. Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дис.афтореф. – Қўқон, 2019, – 40 б.

⁷ Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. –№ 5. –Б. 9.

3. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғофур Ғулом, 2012. – 152 б.
4. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 148 б.
5. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили а адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19–24.
6. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.